

**GELMINTLARNI INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI. ULARNI YUQISH
USULLARI VA OLDINI OLISH.**

Ubaydullayeva Maxsuma Eldorbek qizi

FJSTI, Tibbiy profilaktika ishi 1-kurs 1123-guruh talabasi

Xolmadjonova Muntazir Jahongirovna

FJSTI, Tibbiy profilaktika ishi 1-kurs 1123-guruh talabasi

Olimjonova Dilzoda Qaxramonjon qizi

FJSTI, Tibbiy profilaktika ishi 1-kurs 1123-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola gelmintlarni inson organizmiga qanday yuqishi, ularni oldini olish va ular orqali kelib chiqadigan kasalliklar haqida ma'lumot beradi. Shu bilan chegaralib qolmay, gelmintlar keltirib chiqqan kasalliklarga qarshi kurashish to'g'risida mulohazalar yuriladi. Bu maqoladan nafaqat sog'liqni saqlash sohasi mutaxasislari, balki, bu sohada tahsil olayotgan talaba va magistrlardan tashqari har qanday o'z sog'ligiga befarq bo'lmagan shaxs foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: Gelmint, gelmintoz, parazir, lyamblya, askarida, gijja, Rentgenografiya, MRT va KT, ostritsa, monogeya, nematoda, so'rg'ichlilar, zuluklar, ekto-parazit, endo-parazit.

Gelmintlar (Helminthos. yun. helmins, helminthos — chuvalchang, gijja) — har xil sistematik guruhlarga mansub parazit chuvalchanglar guruhi. Gelmintlarga 5 tipga mansub jonivorlar, jumladan yassi chuvalchanglardan monogeneyalar, so'rg'ichlilar, tasmasimon chuvalchanglar va sestodsimonlar; to'garak chuvalchanglardan nematodalar va qilchuvalchanglar; halqali chuvalchanglardan zuluklar; tikanboshlilar, nemertinlar hamda sistematik o'rni to'liq aniqlanmagan ortonektidlar va ditsiyemidlar kiradi. Gelmint ekologik guruh bo'lib, juda xilma-xil jonivorlarni o'z ichiga oladi. Teri-muskul xaltasi, tana organlarining uchta embrional varaqdan hosil bo'lishi; tanasi oldingi qismining ixtisoslashib, yopishuv yoki sezgi organlari hosil qilishi hamda bilateral simmetriyalik hamma gelmintlar uchun xos bo'lgan umumiy belgi hisoblanadi. Parazitlik qilish xususiyatiga binoan gelmintlarni statsionar va fakultativ parazitlarga ajratiladi. Birinchi guruhga odam, hayvon va o'simlik parazitlari (tasmasimon chuvalchanglar, trematodlar, tikanboshlilar va ko'pchilik nematodalar); ikkinchi guruhga — ko'pchilik zuluklar, ayrim kiprikli chuvalchanglar va nemertinlar kiradi. Lichinkalik davrida hasharotlar tanasida parazitlik qiladigan, voyaga yetgan davrida esa erkin yashaydigan qilchuvalchanglar gelmintning o'ziga xos guruhini hosil qiladi. Parazitlik qiladigan joyiga binoan gelmint tashqi — ekto-parazitlar (monogeneyalar, ko'pchilik zuluklar, nemertinlar va turbellariyalarning bir qismi) hamda endo-parazitlar (ko'pchilik gelmintlar)ga ajratiladi. Parazit hayot kechirish

ta'sirida gelmintning harakatlanish, xo'jayin tanasidan tashqarida faol oziq qidirish xususiyatlari yo'qolgan; bir qancha turlarida hazm sistemasi reduksiyaga uchragan. Buning o'rniga yopishuv organlari rivojlanib, pushti keskin oshgan, rivojlanish sikli murakkablashib, ko'plab potensial xo'jayinlarni zararlashga imkon beradigan bo'lgan. Gelmint lichinkasi ko'pincha to'la-to'kis yoki qisman asosiy xo'jayin organizmidan tashqarida rivojlanadi. Rivojlanish xususiyatiga binoan gelmint geogelmintlar va biogelmintlarga ajratiladi. Geogelmintlar tashqi muhitda, biogel-mintlar boshqa hayvonlar — oraliq xo'jayin organizmida rivojlanadi. Ayrim biogelmintlar oraliq xo'jayindan tashqari qo'shimcha, hatto rezerv xo'jayinga ham ega bo'ladi. So'rg'ichlilar va tasmasimon chuvalchanglar sinfiga mansub bir qancha gelmintlarda jinsiy ko'payish bilan birga lichinkalik partenogenez ham uchraydi. Jinsiy va jinsiz gallanib ko'payish turning saqlanib qolish imkoniyatini oshiradi. O'zbekistonda umurtqali hayvonlarda 1000 dan ortiq gelmintlar parazitlik qiladi

Odam va hayvonlarning a'zo va to'qimalari hisobiga yashovchi mayda chuvalchanglar – gijjalar (gelmintlar), ular keltirib chiqaradigan kasalliklar gelmintozlar deyiladi. Kasallik manbai bemor odam va gijjalar bilan zararlangan hayvonlar hisoblanadi. Gijjalar – chuvalchanglar, o'zining parazitlik hayotini odam organizmida o'tkazuvchi organizmlardir. Bunda odam yoshi rol o'ynamaydi - kattalar ham, bolalar ham bir xilda kasallanishi mumkin.

Parazitlar insonga qanday yuqadi?

Parazitlar turiga qarab turli usullarda yuqishi mumkin. Masalan, askaridalar, asosan, qo'lini yaxshi yuvmaydigan bolalarda ko'p uchraydi. Ostrisalar esa odamga iflos qo'llar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda og'iz va burunga tushadigan chang orqali ham yuqishi mumkin.

Kasallik belgilari:

Gijjalarning xili, soni va qaysi organda parazitlik qilishiga qarab kasallik har xil kechadi. Parazitlar bilan zararlangan odamning vazni kamayadi, qorinda og'riq, ko'ngil aynishi, ich ketishi yoki bosh aylanishi, jizzakilik paydo bo'ladi. Gijja ichakda bo'lsa – ich qotadi yoki ich ketishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish holatlari kuzatiladi. Jigarda bo'lsa - ko'z oqi va badan sarg'ayadi, shish paydo bo'ladi, badanga har xil dog'lar tushishi mumkin. O'pkada bo'lsa - isitma chiqishi va yo'tal paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, odamning mehnat qobiliyati pasayadi, bolalarda rivojlanish orqada qoladi, yaxshi o'smaydi, xotira pasayadi, uyquasi notinch bo'ladi.

Gelmintlarning klassifikatsiyasi juda keng, ayniqsa, issiq iqlimli mamlakatlarda. Hozirda eng ko'p uchrayotgan parazit turi bu - lyamblya hisoblanadi. Layamblya – oddiy, sodda jonivor. U o'zidan o'zi odam organizmida ko'payadi. Shifokorlarimiz tavsiyalariga ko'ra lyamblyani shikoyat bo'lsagina davolash maqsadga muvofiq. Lyamblyaning alomatlari ishtaha bo'lmaydi, ertalab nonushta

qilishga qiynalish, kun bo‘yi och qorinda yurish, bolalarda injiqlik, jizzakilik, ich o‘z-o‘zidan ketishi va qotishi bo‘ladi.

Yuzdagi oq dog‘lar har doim ham gijja alomati emas ekan. Ular zamburug‘dan ham bo‘lishi mumkin. Lyamblyani ko‘pincha klizma qilishadi, holbuki, uni yo‘qotishda klizma qilish befoyda. Chunki klizma lyamblya o‘rnashgan joygacha yetib bormaydi. Lyamblya o‘t yo‘llarida, o‘n ikki barmoq ichagida ko‘proq parazitlik qiladi. Biz taom tanovul qilganimizda, ovqat hazm bo‘lishi uchun, oshqozondan keyin o‘n ikki barmoqli ichakka o‘tadi. Lyamblya o‘n ikki barmoqdagi odam uchun kerakli vitaminlar, minerallar, kaliy, kalsiylar bilan oziqlanadi. Lyamblya qaynatilmagan suv va ichimliklardan yuqishi mumkin. Lyamblyani davolash usullaridan biri uni o‘ldiradigan dori 5 kun ichiladi. Lekin bu dorini berishdan oldin jigarni yaxshilab tekshirish kerak. Keyin o‘lgan lyamblyalarni 5 kun ich surar qilib tushirish lozim. 20 kun yoki 1 oy o‘t haydovchi (makkajo‘xori popugi)ni berilsa, lyamblya o‘lib ketadi. Lyamblya yotib davolanishga muhtoj emas, deya o‘z maslahat va tavsiyalarini aytib o‘tdi shifokorimiz Saodat Temirova.

OSTRITSA. Bolalarda eng ko‘p uchraydigan parazit – ostritsa (oddiy gijja), enteribioz kasalligini chaqiradi. Ushbu gelmintlar katta bo‘lmagan o‘lchamda o‘rtacha 1 sm, oq-kulrang rangda, egilgan tanali bo‘ladi. Bu parazitlarning joylashish joyi yo‘g‘on ichakdir, ba‘zida ular ingichka ichakning pastki qismida ham joylashishi mumkin. Ostritsaning ko‘payishi anal teshigi terisi atrofida kechadi. Tunda ostritsa urg‘ochisi tuxumlarini qo‘yish uchun teri burmalariga boradi, qiz bolalarda ko‘pincha qin lablariga ham o‘tadi. Ushbu gelmintlar 1-1,5 oy hayot kechiradi. Bola o‘z-o‘zini zararlashi uning yillar davomida bezovtalanib yurishiga sabab bo‘ladi. Parazitni oddiy (qurollanmagan) ko‘z bilan najasda ham ko‘rsa bo‘ladi. Ostritsaning oshqozon va ichaklarga tushishi, organizmning parazit bilan zararlanishi deganidir. Ostritsa tuxumlari tashqi muhitga ifloslangan najas bilan tushadi. Tuxumlarning tashqi qobig‘i noqulay muhitga chidamli va hajmi juda kichik. Bola atrof-muhitni o‘rganish, jismlarning ta‘mi va tarkibini bilish maqsadida qo‘llari bilan har narsani ushlab ko‘radi hamda ularni og‘ziga olib boradi. Shu yo‘l bilan ostritsaning tuxumlari o‘zining “bo‘lajak kichik xo‘jayini” organizmiga tushadi. Ostritsa 20 sm.dan 40 sm.gacha bo‘ladi. 21 kun davomida yashaydi. Ostritsani davolashning eng oson yo‘li tozalikka e‘tibor berishdir.

ASKARIDA. Parazitlardan yana bir keng tarqalgan, bolalarda ko‘p uchraydigan turi – askarida. Bu nematodalar o‘lchami 15 sm.gacha yetadi. Parazit ingichka ichaklar qovuzlog‘ida joylashib olib, tushayotgan ovqatlarni yeb qo‘yadi. Askarida najasga kamdan-kam hollarda tushadi. Urg‘ochi askarida tuxumlarini najas analizida topish mumkin. Agar najas tahlilida tuxumlar topilmasa, bu degani bola askarida bilan zararlanmagan degani emas. Askaridaning hayot sikli bir necha yillarga yetishi mumkin.

Bola organizmi kurashish qobiliyati past bo'lganligi sababli parazit bemalol ko'paya oladi. Gijjalar bilan yuvilmagan mevalar va ifloslangan suv orqali zararlanishi ham mumkin. Ko'pincha zararlanish bolalarning hayvonlar bilan muloqotida, ular axlati tushgan tuproq va qumlarda o'ynaganda ham kuzatilishi mumkin. Bolalar ko'chada o'ynab kelganidan so'ng qo'llarini yuvishmaydi, parazitlar bu vaqtda organizmga tushadi. Shuning uchun barcha bolalar yashash sharoiti va tarbiya muhitidan qat'iy nazar birday zararlanishi mumkin.

Aniqlash usullari

Bola zararlangandan keyin va birinchi belgilar paydo bo'lganda, parazitlarga gumon qilinganda quyidagi tadbirlar o'tkazilishi shart: Najas analizi 3 marta olinadi, oralig'i bir necha kun bo'lishi kerak; Qonning gelmintlarga analizi; Qonning umumiy tahlili (ostritsa tuxumlariga); Qo'shimcha tekshiruv sifatida: Ichki a'zolar UTTisi; Rentgenografiya; KT va MRT; Bu tekshiruvlar parazitlarning boshqa organlarda joylashgan joylarini aniqlab beradi.

Xulosa

Hozirgi kunda global muammolar safiga kirgan muammolardan biri-gelmintlar. Ularni oldini olish har bir inson uchun muhim ahamiyatga ega. Kasallikni oldini olish bilan birgalikda ularni belgilarini bilish ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.
2. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.
3. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o'g'li. (2023). CHEKISH BILAN BOG'LIQ O'PKA KASALIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 719–723
4. AN Abdiqayumovich, M Sarvarbek Gayratjon o'gli. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKANING ROLI. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования 10 (6), 177-180.
5. Ravshanbekovna, M. N., Sarvarbek Gayratjon og, M., & Alijon o'g'li, T. A. (2024, January). AYRISH SISTEMASIDAGI BUYRAKNING AHAMYATI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 16, pp. 11-14).

6. Erkinjon o'g'li, M. X. BEMORLARNI TEKSHIRISHDA DIAGNOSTIK AXAMIYAT.
7. Madraximova, N. R. (2024). O 'PKA KASALLIKLARNI ANIQLASHDA ZAMONAVIY DIAGNOSTIK USULLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 36-38.
8. Yusubjanovna, Akbarova Munojatxon. "BIRINCHI TIBBIY YORDAMNING AHAMIYATI VA UNI BAJARISHNING UMUMIY QOIDAIARI." *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION* 2.1 (2023).
1. Yusubjanovna A. M. AVTOMATIK BOSHQARISH TIZIMLARI VA TEXNIK VOSITALARINING PUXTALIGI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 1.
9. Axbarova Munojatxon, Komilova Asalxon Ne'mat qizi, & Burxonova Orzuxon Asrorjon qizi. (2022). TIBBIYOTDA NANOELEKTROTEXNIKANING QO'LALLANILISHI. *Conferencea*, 5–6.
10. Yusubjanovna, A. M. "Iqbol o'g'li, QM, & Adhamjon o'g'li, EA (2023)." *SUYUQ KRISTALLAR VA ULARNING RENTGEN DIAGNOSTIKASI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION* 2.6.
11. Akbarova, Munojatxon Yusubjanovna. "“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” FANINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNI QO'LLASH TARTIBI." *SO 'NGI ILMIIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI* 6.12 (2023): 366-371.
12. Akbarova, Y. M. "TIBBIY TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIGA “HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” FANINI O 'TISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI." *FAN JURNALI TA'LIM VA MADANIYAT* 1.1 (2023): 26-31.
13. Yusubjanovna, Akbarova Munojatxon, Qodirov Miraziz Iqbol o'g'li, and Eshmurodov Asadjon Adhamjon o'g'li. "SUYUQ KRISTALLAR VA ULARNING RENTGEN DIAGNOSTIKASI." *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION* 2.6 (2023).
14. Abdusubxon o'g'li, Usmonov Saidjon, and Akbarova Munojatxon Yusubjanovna. "YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O 'STIRISH." *E Conference Zone*. 2022.
15. Abdusubxon o'g'li U. S., Yusubjanovna A. M. YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O 'STIRISH //E Conference Zone. – 2022. – С. 33-34.
16. Хоменко Е. Д. и др. МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ».